



## JADID TEATRI VA UNING FARG'ONADAGI ILK qadamlari

**Sarvinozxon Abdullayeva**

*O'zDSMI, Dramatik teatr va kino aktyorligi mutaxassisligi 1-kurs magistranti*

**O.Dadamizayev**

*Ilmiy rahbar: O'zDSMI, Dramatik teatr va kino san'ati kafedrasida dotsenti*

Annotatsiya

Ushbu maqolada sinergetik yondashuvning pedagogik ta'lim sohasidagi imkoniyatlari tahlil qilinib, bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari ochib berilgan. Sinergetik paradigma asosidagi tayyorgarlik modeli, uning tarkibiy elementlari va amaliy tatbiq yo'llari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari zamonaviy pedagogik ta'lim tizimini takomillashtirish uchun ilmiy-metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** teatr, jadidchilik, dramaturgiya, san'at, jadidchilik maktablari, jadidchilik harakati.

**Abstract:** this article discusses the Jadid theater and its emergence in Fergana, its influence, the Jadidist movements of our Jadid ancestors, the spread and development of Jadid schools in the regions.

**Key Words:** theater, Jadidism, dramaturgy, art, Jadidist schools, Jadidist movement.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается джадидский театр и его возникновение в Фергане, его влияние, джадидистские движения наших предков-джадидов, распространение и развитие джадидских школ в регионе.

**Ключевые слова:** театр, джадидизм, драматургия, искусство, джадидистские школы, джадидистское движение.

O'zbek teatr san'ati ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, uning ildizlari qadimgi davrlarga borib taqaladi. Asrlar davomida shakllanib, takomillashib kelgan og'zaki dramaturgiya asosidagi o'zbek an'anaviy teatri- qiziqchi, masqaraboz, qo'g'irchoqbozlik san'ati va nihoyat, XX asr boshlarida yozma dramaturgiyaga tayanib, shakllana boshlagan zamonaviy teatr san'ati o'zbek badiiy madaniyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylangan<sup>1</sup>.

O'zbek jadid dramaturgiyasi hamda teatrning shakllanishi, avvalo ijtimoiy hayot taqozosi va ehtiyoji tufayli sodir bo'ldi. Tarixiy jarayon va Rossiyaning

<sup>1</sup> Charos Raximova dissertatsiyasi. "Farg'ona viloyat teatrlarida milliy dramaturgiyaning sahna talqini"

mustamlakachilik siyosati mamlakatdagi musulmon o'lkalarining jumladan Turkistonning tom ma'nodagi milliy uyg'onishi uchun vaziyat etilganligini namoyon qilmoqda edi. XIX asrning oxirlari va XX asr boshlariga kelib jamiyatning eng ilg'or fikrlari qatlamlari qarashlarini aks ettirgan milliy uyg'onish muayyan mafkura sifatida, birinchi navbatda, marifatchilikda ko'rindi. Ana shu mafkuraning jarchilari bo'lgan jadidlar esa keng miqtosli amaliy faoliyat bilan o'z g'oyalarining jamiyat hayotida qaror topishi, mustaxkamlanishi va oxir- oqibat ular ko'zlagan milliy ozodlik, siyosiy mustaqillik kurashlariga o'sib o'tishi uchun zamin yarata boshladilar. Bu butun bir Turkiston xalqining ijtimoiy-siyosiy tafakkuri taraqqiyotida yangi bir bosqich edi. Bu bosqichni har bir madaniy o'tmishiga ega bo'lgan xalq o'z boshidan kechirgan. Chunki jamiyat taraqqiyotida malum bir sistemaning tabiiy ravishda yangi sifat o'zgarishiga uchrashi o'ziga xos marifatchilikni taqazo etadi. Chunki jadid teatri va dramaturgiya tarixiy davrda yuzaga keldi. Xalq hayotidagi o'zgarishlar natijasida shakllandi. O'sha davrlarda sekin asta xalq orasida ozodlik mustaqillik kabi tushunchalar paydo bo'ladi va bu jadidlarimizning harakatlari orqali sekin asta xalq uyg'onib, ilmga ma'rifatga intilish boshlanadi. O'z navbatida bu jarayonlardan o'tish uchun yangicha fikrlash lozim bo'lgan. Bu jarayonda jadid bobolarimizning o'rni beqiyos bo'lgan. O'sha davrlardan ozodlik, ilm ma'rifatga o'tish va xalqqa to'g'ri yo'l ko'rsatish uchun bizga ayna mana shunday jasur, ilmli, qat'iyatli bo'lgan bobolarimiz juda ham kerak edi. Biz tarixdan bilamizki ular qanday qiyinchiliklarga qaramasdan bu yo'llarni bosib o'tgan. Albatta Jadidlarimiz xalqni ilm ma'rifatga chaqirish uchun yangi usullar izlay boshlaydilar. Teatr ana shu maqsadni amalga oshirish uchun ularning eng to'g'ri va samarali tanlovlaridan biri edi.

Toshkent jadidlarining otasi hisoblangan Munavvar qori Abdurashidxonovning quyidagi so'zlari ham guvohlik beradi: "Jadid maktabi tashkil qilg'on ham eski maktab, madrasa va qorixonalarining yetishtirgan kishilar edi. Ular yolg'iz Bog'chasaroyda chiqadurg'on Ismoil G'asprinskiyning gazetasini o'qidilar va shu orqali maktabni yahshi tushunib, kitoblar oldirar edi. "(Qizil O'zbekiston gazetasi, 1927 yil 7-iyun.) Shunday qilib, ruslashtirish maqsadini ko'zlagan rus-tuzem maktablari qatori "usuli jadid" maktablari ham paydo bo'la boshladi. Jadid maktabining ilk tashkilotchilari ham tatar qardoshlar bo'ldi. Chor hukumatning turkistonliklarni tatarlar tasiridan saqlashga bo'lgan intilish va cheklashlari tabiiy tarixiy jarayonni to'xtata olmadi. XX asr boshlariga kelib, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona vodiysi shaxarlarida o'nlab "usuli jadid" maktablari ochildi. Uning birinchi qaldirg'ochlari tatar marifatparvarlari qatorida erli ziyolilardan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Siddiqiy-Ajziy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ashurali Zoxiriy, Lutfulla Olimiy, Muhammadsharif So'fizoda, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy kabi o'nlab atoqli zotlar bo'ldi. Yangi maktablar Turkistonda Jadid marifatchiligining ilk ko'rinishi bo'lishi bilan birga to bu harakat sof siyosiy qiyofa kasb etgunga qadar ham o'z ahamiyatini yo'qotmadi.<sup>2</sup>

Jadidlar tamonidan tashkil etilgan teatr bu Farg'onada shunchaki sahna san'ati sifatida emas, balki ijtimoiy fikr uyg'otuvchi vosita sifatida ham tomoshabinlarga manaviy ozuqa berdi. Jadid teatrining ilk namoyon bo'lishi bu oddiygina madaniy charchoq chiqarish uchun mo'ljallanga tadbir kechasi emas, balki insonlarning ongini

<sup>2</sup> Shuxrat Rizayev "Jadid dramasi" sharq nashiryoti 1997yil.

rivojlantirishga qaratilgan xarakterdir. Chunki teatr tomoshasi insonlarga asosiy g'oyani hissiy ta'sir orqali oson va tez yetkazdirgan. O'sha davrlarda matbuot ham rivojlanib, savodli, ziyoli kishilarga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, teatr hamma insonlarni birdek qamrab olish imkonini bergan. Bu esa jadidchilik harakati ta'siri doirasini kengaytirgan. Ming yillik an'anaviy yo'sindagi adabiyot o'rniga yangi, zamonaviy adabiyot, yangi adabiy tur va janrlar, xatto yangi adabiy til shakllana boshladi. Matbuot bilan birga turli sohalarni qamrab olgan publisistika, adabiy tanqid paydo bo'ldi. Badiiy ijodda "janrovii" inqilob sodir bo'lib, barmoq vaznidagi ijtimoiy, ma'rifiy she'riyat, roman, hikoya, dramaturgiya maydonga keldi. Yangi adabiyotning Behbudiy, Siddiqiy-Ajziy, Abdulla Qodiriy, Hoji Mo'min, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda, Sidqiy Hondayliqiy, Fitrat, Sadridin Ayniy, Tavallo, Nozimaxonim, Mirmulla va Mirmuxsin Shermuhammedovlar, So'fizoda, Ibrohim Davron, Abdulla Badriy, Nusratulla Qudratulla-Milliy, Xurshid, Cho'lpon kabi o'nlab namoyondalari yetishib chiqdi. "Jadidlar o'z mafkuralarini tarqatish, o'z g'oyalari yo'lida tashviqot olib borish uchun adabiyot yaratdilar" deb yozgan edi keyinroq munaqqid Tursunqul.<sup>3</sup> Bu jarayon ham shuni ko'rsatadiki jadidlar adabiyot orqali jamiyat ongiga ta'sir o'tkazishga intilganlar. Bu yo'lda jamiyat muammolarini yoritib, yangicha fikrlashni shakllantirishga harakat qilgan. Bu orqali ular milliy madaniyat qadriyatlarimizni saqlab qolgan holda, xalqni eski qarashlari, cheklovlardan voz kechgan holda yangi fikr va g'oyalarni ilgari surishlikka davat qilgan. 1911 yildan to 1929 yilgacha bo'lgan davrni o'zbek jadid dramaturgiyasining shakllanishi va taraqqiyoti davri deb atash ham tarixiy, ham adabiy reallikka muvofiqdir. Bu davrlarni uch asosiy davrga ajratish lozim. Birinchisi, tom manodagi shakllanish davri bo'lib, u 1911-1916 yillarni o'z ichiga oladi. Ikkinchisi, 1917-1924 yillar oralig'idagi taraqqiyot bosqichi. Uchinchi davri, 1925-1929 va malum darajada undan keying yillarni o'z ichiga oladi. 5-6 yil ichida yaratilgan pyesalarning miqdori ham shu paytgacha keltirilgan ro'yxatlardagidan anchagina ko'p. Bunday ro'yxat ilk bor akademik A. N. Samoylovichning zikr etilgan "Dramaticheskaya literatura sartov" nomli 1916-yilda yozilgan maqolasida uchraydi. U jami 7 ta pyesani sanab, ularga qisqa sharhlar beradi. Bular Behbudiyning "Padarkush", Nusratulla Qudratullaning "To'y", Abdulla Qodiriyning "Baxtsiz kuyov", Abdulla Badriyning "Juvonmarg", "Ahmoq", Xoji Mo'minning "Ko'knori", "Eski maktab- yangi maktab" asarlaridir.

Bu asarlar o'z davrining muhim ijtimoiy muammolarini yoritgan. Ular eski odatlar oilaviy muammolar, eski an'analarga suyanishni tanqid qilgan. Masalan, "Padarkush" va "Baxtsiz kuyov" oiladagi muammolarni, "Eski maktab-yangi maktab" esa eski va yangi ta'lim tizimidagi ziddiyatlarni ochib beradi. Bu asarlar barchasi o'sha davr jamiyatini o'zgartirishga xizmat qilgan deb o'ylayman. Jadidchilik turkistonda o'ttiz yil nari-berisi davom etdi. Jadid teatri esa undan ham kamroq- yigirma yilga yetar-yetmas. Tarix jilla qursa, insoniyat tarixi oldida ham bu muddat zarrachalik emas. Biroq shu qisqagina davr katta bir xalqning millat sifatida shakllanishiga, ijtimoiy ongni uyg'onishiga, dunyoqarashi o'zgarib, estetik didi kamol topishiga imkon yaratdi.<sup>4</sup>

<sup>4</sup> Shuxrat Rizayev "Jadid dramasi" sharh nashiryoti 1997yil

Ustozlarimiz aytganidek, teatr- dunyo, dunyo esa tomoshaxona. Sahna aylangani kabi dunyo ham hamisha aylana harakatda. Kelajakni oldiga maqsad qilgan odam, o'tmishga nazar tashlashi, bugungi kuniga maqsad qo'yishi kerak. Tariximizni bilmasdan kelajakga qadam tashlolmaymiz. Mustaqil davlat poydevorini tiklar ekanmiz, tarixdan jadid bobolarimizdan ibrat olishimiz zarur. Ularning bizga qoldirgan meroslari, jasoratlari tarix zarvarloqlarida bitilib qoldi. Ularning millat uchun kelajak yoshlar uchun yozgan asarlari hali-hanuz teatr sahnalarida bardavomdir. O'zbek teatr san'atining muhim qismi bo'lgan Farg'ona viloyati musiqali drama teatrlarining ko'p yillik faoliyati va izlanishlarini ilmiy jihatdan o'rganish juda muhimdir. Milliy teatr san'atining o'tmishi, bugungi holati va kelajakdagi rivojlanishini to'liq tushunish uchun faqat poytaxt teatrlari emas, balki viloyat teatrlari haqida ham ma'lumotga ega bo'lish zarur. Chunki viloyat teatrlari ham o'ziga xos tarixiy rivojlanish yo'liga ega va ular milliy teatr san'atining azal-azaldan ham muhim qismi hisoblanadi. Farg'ona viloyati teatrlarining bir asirlik tarixi Qo'qon muzofotida maydonga kelgan teatrchilik harakati bilan boshlandi. Bunda Hamza Hakimzoda Niyoziy tashkil qilgan havaskorlik guruhlarining ahamiyati katta. 1915-1930 yillarda mahaliy ijodkorlarning asarlarini sahnalashtirish bilan bog'liq jarayonlar kuzatilgan. O'zbek yozma dramaturgiyasining vujudga kelishi yirik ijtimoiy – siyosiy madaniy harakat bo'lmish **jadidchilik** bilan bevosita bog'liq.

Bu yillarda asosan Hamza Hakimzoda Niyoziy dramaturgiyasi ustivorlik qildi. “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari”, “Boy ila xizmatchi”, “Tuhmatchilar jazosi”, “Kim to'g'ri?” shular jumlasidan. Bu davrda teatrlarda ijro etilgan spektakllarga jadid jadid namoyondalarining dastlabki pyesalari asos bo'lgan va voqealarning oddiyligi asosan, “Turkiston yurti maishatidin olingan” ijtimoiy muammolar mavzusining tipik xarakterga egaligi bilan alohida xarakterlanadi. Garchi ushbu dramalardagi ko'rinishlarning kamligi, obrazlarning soddaligi, ijrodagi oddiylarning ustivorligi, qolaversa, teatr ijtimoiy hayotining favqulotda yangi bir hodisasi sifatida, xalqning butun e'tiborini qamrab olishga erishdi.<sup>5</sup> Yuqoridagi ma'lumotlarga qo'shimcha qilib shularni aytmoqchimanki, bu asarda muallif eski urf-odatlar, majburiy nikoh, jaholat va ayollar taqdiriga befarq munosabat kabi muammolar yoritilgan. Yana asarda yoshlarni bir biriga ko'ngil qo'yishi, o'z hayotini mustaqil tanlash huquqi masalalari yoritiladi. Yozuvchi o'sha davrdagi jamiyatdagi adolatsizlik, ota-onalarning majburiy qarorlari va boylar ortidan quvish natijasida yoshlarni baxtsiz hayot to'qnashishini ko'rsatadi. 1930-yillardan boshlab keying bosqichda teatr truppsi ancha jonlangan, ijodiy teranlik va tajriba yuksala boshlagan davr bo'ldi. Natijada mahaliy dramaturglarning asarlari bilan bir qatorda xorijiy dramaturgiyaga ham murojat qilina boshladi. Repertuardan klassik asarlar ham muhim o'rin oldi. “Malikai Turandot” (K. Gotssi, rej. K. Nazarov), “Skapening nayranglari” (Moler, rej. Z. Mirzatov), “Arshin mol olon” (U. Gajibekov, rej. K. Yoqubov) lar shular jumlasidan. Bunday tajriba milliy dramaturgiyaning mavzu va janr nuqtai nazaridan kengayishi va baqquvatlashib borishiga turtki bo'ldi. Hukumat qaroriga binoan 1930-yilda tashkil topgan Farg'ona viloyati musiqali drama teatri 1931-yili “Ikki komunist” pyesasi bilan o'z sahnasini ochdi. 1930-yilda Farg'ona viloyat musiqali teatri o'z faoliyatini “Ikki komunist” asari bilan boshlashi bu o'sha davr ijtimoiy-siyosiy muhitining bevosita ta'siri natijasida

<sup>5</sup> Charos Raximova dissertatsiyasi. “Farg'ona viloyat teatrlarida milliy dramaturgiyaning sahna talqini”

bo'lgan. Ya'ni zamon bilan hamnafas o'sha davr muammolarini yoritishga harakat qilishgan. Shunday qilib, men Farg'ona viloyat musiqali teatrining dastlabki repertuar siyosatini tahlil qilar ekanman, uning qisqa muddat ichida ko'p janrli va badiiy jihatdan boy teatrga aylana boshlaganini kuzatdim. Bu jarayon Farg'ona teatrining keying taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilgan, degan xulosaga keldim.

Ikkinchi jahon urishidan keyingi 60-yillarda Farg'ona viloyat musiqali drama teatriga yosh mutaxassis kadrlarning ushbu muassasaga jalb etilishi tashkiliy ijodiy jarayonning jonlanishi hamda samarali natijalarga erishuvi yo'lidagi muhim omil bo'ldi. Yangi ijodiy kuchlar hisobiga, teatr repertuarlarida tomoshabin dunyo qarashi hamda davr ijtimoiy hayot manzaralari bilan parallel mazmun kasb etuvchi qator yangi sahnaviy asarlar- "Tog'a-jiyanlar", "Toshbolta oshiq", "Meli xobbon-u Nabi tovon", "Tobutdan tovush" hamda "Oy tutilgan tunda" kabi qator spektakllar bilan boyidi. 1970-yilda teatrda bosh rejissyor bo'lib kelgan Nosir Otaboyevning qariyb 16 yillik hayoti Farg'ona teatri bilan bog'liqdur. O'zining dastlabki "Yo'lchi yulduz" spektaklidan e'tiboran, ijtimoiy ko'lami keng asarlarga diqqatini qaratib "Bahtiyor gadolar" (1972), "Parvoz" (1975), "Revizor" (1976) kabi yirik dramatik asarlarni sahnaga qo'ydi.<sup>6</sup>

Bu ma'lumotlardan so'ng shunday xulosaga kelish mumkinki Farg'onada jadid teatrining ilk bosqichi Toshkent yoki boshqa hududlardagi jarayonlardan ruhiy jihatdan farq qilgan bo'lishi mumkin. Chunki vodiyning mahaliy mentaleteti, diniy muhit va ijtimoiy qatlamlar tarkibi sahnalashtirilgan asrlarning mazmuni va ifoda uslubiga ham ta'sir ko'rsatgan. YA'ni, jadid teatri bu hududda mahaliy sharoitga moslashgan holda shakllangan. Yana shularni aytish joizki Farg'onada ilk jadid teatrining namoyon bo'lishi keying professional o'zbek teatr san'ati rivojiga zamin yaratgan eng asosiy nuqtalaridan biridir. Teatr rivojlanishi bilan bir qatorda insonlarning ongi, fikrlash jarayoni, dunyo qarashi, xalqning madaniyati, badiiy so'zga bo'lgan muhabbati rivojlanib sekin asta xalq qalbidan joy ola boshlashgan. Aynan shu davrda tomoshabin sahna orqali ijtimoiy masalalarni muhokama qilishni ham o'rgana boshlagan.

"Istiqlol erkin intilish nuqtai nazaridan saksoninchi yillar ijodkorlari jadidlar g'oyasiga yaqin mavzularda asarlar yaratishdi. Biroq jadid dramaturgiyasiga nisbatan badiiy darajasi, teatronalik hususiyatlari hamda janriy rang barangligi kuchli bo'ldi". Mamlakatimiz tarixida yuz bergan bunday o'zgarishlar, milliy o'zlikni anglash kayfiyati Farg'ona teatriga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi<sup>7</sup>. Olimjon Salimov teatrda rejissyor bo'lib kelgach, jahon adabiyotiga hos bo'lgan asarlarga asosiy e'tiborni yo'naltirishi, ushbu ijodiy jamoa faoliyatida esta qolarli talabchan tomoshabinni o'yga toldiradigan, mulohazaga chorlovchi yuksak saviyali asarlarni sahnalashtirishiga imkon yaratdi. Xususan bu borada mashxur qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov asari asosida yaratilgan "Sohil bo'ylab chopayotgan olapar" deb nomlangan ilk spektaklidanoq, ijtimoiy muammolarni keskin qo'yishdek hususiyati namoyon bo'ldi. Ifodaviy shaklining oddiyligi va ma'no ko'laminin kengligi jihatidan dramaturg Sharof Boshbekovning "Temir xotin" tragikamediyasi asosida rejissyor Olimjon Salimov sahnaga qo'ygan(1988) spektakl favqulotda yangi badiiy voqealik

<sup>6</sup> Charos Rahimova dissertatsiyasi "Farg'ona viloyat teatrlarida milliy dramaturgiyaning sahna talqini"

tarzida e'tirof etildi.<sup>8</sup> Spektakl 1989 – 2000 gacha teatr repertuaridan mustahkam o‘rin oldi. Bundan tashqari ko‘plab xalqaro teatr festivallarida nufuzli o‘rinlarni egallab keldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Shuxrat Rizayev “Jadid dramasi” sharq nashiryoti 1997yil
2. Charos Rahimova dissertatsiyasi “Farg‘ona viloyat teatrlarida milliy dramaturgiyaning sahna talqini” T:2024

---

<sup>8</sup> Charos Rahimova dissertatsiyasi “Farg‘ona viloyat teatrlarida milliy dramaturgiyaning sahna talqini”